



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 19-mart

134-6-81-Q/25

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2025-yil 17-martda “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 24-fevraldagi PQ–75-son qarori ijrosi haqida”gi 132-6-0-Q/25-sonli qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 24-fevraldagi PQ–75-son hamda Namangan viloyati hokimining 2025-yil 17-martdagi 132-6-0-Q/25-sonli qarorlarini ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 21¹-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2025-yil 17-martdagi 132-6-0-Q/25-sonli qarori ijrosi rahbarlik va ijrosini ta‘minlash uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-fevraldagi PQ–75-son qarori bilan:

Statistik kuzatuvlarni o‘tkazish va ko‘rsatkichlarni shakllantirish uslubiyotlarini xalqaro standartlarga muvofiq lashtirish, sohada islohotlarni jadallashtirish hamda xalqaro tashkilotlar ishtirokida kadrlar salohiyatini oshirish maqsadida Milliy statistika qo‘mitasi tuzilmasida “Milliy statistika tizimini transformatsiya qilish” ofisi (keyingi o‘rinlarda — Transformatsiya ofisi) tashkil etilganligi;

Transformatsiya ofisi quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda yangi mexanizmlarni joriy qilishga mas‘ul etib belgilanganligi:

(a) ichki va tashqi foydalanuvchilar uchun zarur bo‘lgan statistik ma‘lumotlarni, shu jumladan, aholi daromadlari va ularning manbalarini baholash uslubiyotini takomillashtirish;

(b) mikro darajada kuzatuvlarni amalga oshirish va statistik ko‘rsatkichlarni shakllantirish uslubiyotini ishlab chiqish;

(v) Milliy statistika qo‘mitasi bilan rasmiy statistikani tayyorlovchi boshqa davlat organlari o‘rtasida samarali hamkorlik va uslubiy muvofiq lashtirishni yo‘lga qo‘yish;

(g) statistika ma‘lumotlaridan foydalanuvchilar bilan samarali qayta aloqani (mijozga yo‘naltirilganlikni) joriy etish;

(d) xalqaro tashkilotlar ishtirokida statistika organlari xodimlarining salohiyatini oshirish ishlarini tashkil etish;

(ye) sohada faoliyat yuritayotgan ilmiy muassasalar, tadqiqotchilar hamda nufuzli xalqaro konsalting tashkilotlari bilan statistika ishlarini tashkil etish va yuritish bo‘yicha samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;

(j) statistika sohasini rivojlantirishning strategik yo‘nalishlarini ishlab chiqish va amalga oshirishni tashkil etish;

belgilanishicha:

(a) Transformatsiya ofisi shtat birliklari Milliy statistika qo‘mitasi tizimi tashkilotlarining amaldagi shtatlari doirasida shakllantiriladi;

(b) Transformatsiya ofisi faoliyatini muvofiqlashtirish ishlari Milliy statistika qo‘mitasi raisining transformatsiya masalalari bo‘yicha o‘rinbosari tomonidan amalga oshiriladi;

(v) hududiy statistika organlari balansidagi tuman (shahar) bo‘limlari binolarini belgilangan tartibda sotishdan tushgan mablag‘lar statistika organlari hisobida qoldiriladi hamda sohaning strategik yo‘nalishlarini rivojlantirishga yo‘naltirilishi;

quyidagilar:

(a) O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining tashkiliy tuzilmasi 1-ilovaga muvofiq;

(b) O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi to‘g‘risidagi nizom 2-ilovaga muvofiq;

(v) Respublika statistika kengashi to‘g‘risidagi nizom 3-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

Milliy statistika qo‘mitasi, uning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar boshqarmalari hamda tuman (shahar) bo‘limlari xodimlarining yagona tarif setkasi bo‘yicha razryadlari 4, 5 va 6-ilovalarga muvofiq tasdiqlanganligi;

Rasmiy statistika sohasida islohotlarni yanada chuqurlashtirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” 7-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi e‘tiborga olinsin.

3. Statistika bo‘limi (Sh.Otaboyev) manfaatdor idoralar bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-fevraldagi PQ–75-son qarori talablari asosida ish tashkil etsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari – tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i A.Abdusalomov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov